

DINLAR TARIXINI O'RGANISH VA FAN SIFATIDA RIVOJLANISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8072096>

Rahmonova Ruxshona

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Dinshunoslik yo'nalishi 2-bosqich talabasi
rahmonovasoliha32@gmail.com
+998900817212*

Annotatsiya.

Bugungi kunda turli sohalar qatori islomshunoslik sohasida ham turli xil izlanishlar va tatqiqodlar olib borilmoqda. Jumladan, Dinning vujudga kelishi sabablarini o'rganish qadimdan insoniyatni qiziqtirib kelgan va hozir ham dolzarblik ahamiyatini yo'qotmagan. Bundan bir necha asrlar muqaddam ham olimlar tomonidan o'rganilib, asarlar yozib qoldirilgan. Dinlar tarixini o'rganish borasida Sharq va G'arb olimlari o'z qarashlarini bayon qilishgan. Din boradagi ilk ma'lumotlarni Qadimgi Gretsiya va Rim yozuvchilari asarlarida ko'rishimiz mumkin. Jumladan, "tarix otasi" nomini olgan Gerodot o'zi tadqiq qilgan xalqlarning dinlari haqida asarlarida ma'lumotlar keltirgan. Shuningdek, g'arb olimi Maks Myukker va E.V.Teylor tomonidan ham dinlar tarixi o'rganilgan. Mashhur Sharq olimi Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" va "Hindiston" asarlarida dunyoda mavjud dinlar haqida o'z davri manbalari asosida so'z yuritadi. Xuddi shunday, misrlik Muhammad Xalifa Hasan o'zining "Tarix al-adyan" asarida dinlar tarixini yakkaxudolik va ko'pxudolik dinlari yuzasidan o'rgangan.

Kalit so'zlar.

Dinlar tarixi, dinshunoslik, Sharq va G'arb olimlari, qiyosiy dinshunoslik, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Xalifa Hasan, "Tarix al-adyan" asari, "materialistik yondashuv", "teologik yondashuv", Markaziy Osiyo dinlari.

STUDYING THE HISTORY OF RELIGIONS AND ITS DEVELOPMENT AS A SCIENCE

Rahmonova Rukhshona

*International Islamic Academy of Uzbekistan
A student of the 2nd stage of religious studies
rahmonovasoliha32@gmail.com
+998900817212*

Abstract.

Today, various researches and researches are being carried out in the field of Islamic studies as well as in various fields. Studying the reasons for the emergence of religion has been of interest to humanity since ancient times, and even now this problem has not lost its relevance. Several centuries ago, it was studied by scientists and works were written down. Eastern and Western scholars have expressed their views on the study of the history of religions. We can see the first information about religion in the works of ancient Greek and Roman writers. For example, Herodotus, who received the name "father of history", provided information about the religions of the peoples he studied in his works. The history of religions was also studied by Western scientists Max Muker and E.V.Taylor.

The famous Eastern scholar Abu Rayhan Beruni in his works "Relics of Ancient Nations" and "India" talks about the world's religions based on the sources of his time. Similarly, the Egyptian Muhammad Khalifa Hasan studied the history of religions in his work "Tarikh al-adyan" regarding monotheistic and polytheistic religions.

Key words.

History of religions, religious studies, Eastern and Western scholars, comparative religious studies, Abu Rayhan Beruni, Muhammad Khalifa Hasan, "Tarikh al-adyan", "materialistic approach", "theological approach", religions of Central Asia.

ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ РЕЛИГИЙ И ЕЕ РАЗВИТИЯ КАК НАУКИ

Рахмонова Рухшона

Международная исламская академия Узбекистана

Студентка 2 ступени религиоведения

rahmonovasoliha32@gmail.com

+998900817212

Аннотация.

Сегодня, наряду с другими областями, проводятся различные исследования и исследования в области религии. Изучение причин возникновения религии интересовало человечество с древних времен, и даже сейчас эта проблема не утратила своей актуальности. Несколько веков назад его изучали ученые и записывали труды. Восточные и западные ученые высказали свои взгляды на изучение истории религий. Первые сведения о религии мы можем увидеть в произведениях древнегреческих и римских писателей. Например, Геродот, получивший имя «отца истории», в своих трудах приводил сведения о религиях изучаемых им народов. Историей религий занимались также западные ученые Макс Мукер и Э.В.Тейлор.

Известный ученый-востоковед Абу Райхан Беруни в своих трудах «Реликвии древних народов» и «Индия» рассказывает о мировых религиях, опираясь на источники своего времени. Точно так же египтянин Мухаммад Халифа Хасан изучал историю религий в своем труде «Тарих ал-адьян» относительно монотеистических и политеистических религий.

Ключевое слово.

История религий, религиоведение, восточные и западные ученые, сравнительное религиоведение, Абу Райхан Беруни, Мухаммад Халифа Хасан, «Тарих ал-адьян», «материалистический подход», «богословский подход», религии Средней Азии.

KIRISH

Yurtimiz mustaqillikka erishishi tom ma'nodagi diniy hamda ma'naviy-ruhiy erkinliklarga ham yo'l ochib berdi. Milliy istiqlol mafkurasida muqaddas islom dinimizning mohiyati, uning insonparvarlik g'oyalari, boshqa dinlarga sog'lom munosabat masalari o'z ifodasini topdi. Dinshunoslik va islomshunoslik sohasida olamshumul ahamiyat kasb etgan ulamolarning merosini o'rganish, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi.

Ijtimoiy-ma'naviy hayot, milliy va demokratik taraqqiyotning uyg'unligi, millat va mamlakatning yuksalib, dunyoga yuz tutish jarayoni yosh avlodning ma'naviy qiyofasi, tafakkur tarzi, milliy, diniy, umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishdagi ko'nikma va bilimlarga chambarchas bog'liq. Zero, dinni xolis, ilmiy tadqiq etish, uni yaxlit ijtimoiy fenomen sifatida o'rganish uning bugungi holati va din bilan bog'liq masalalarni tizimli tahlil qilish va istiqbolini belgilash

ASOSIY QISM

Din har doim insoniyat jamiyatlarining ajralmas qismi bo'lib, odam qanday yaratilganligi hamda dunyo qanday paydo bo'lganligi va nima uchun shunday tashkil etilganligi haqidagi savollarga javob berishga harakat qiladi. Din ko'p insonlarning shaxsiyatlarining markaziy qismi bo'lib, ularning kundalik hayotlari va ijtimoiy munosabatlarini insoniyatning ibtidoiy davrlaridan buyon boshqarib keladi. Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar diniy ta'limotda ham o'ziga xos jarayonlarni keltirib chiqargan. Ular ta'sirida davlat va milliy dinlar vujudga kelgan. Qudratli xudolarga sig'inish va ko'pxudolik shakllangan. Xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, yirik imperiyalarning paydo bo'lishi natijasida dinlar davlat va elatlar doirasidan chiqib, umuminsoniy ahamiyat kasb

etgan va shu tariqa jahon dinlari vujudga kelgan. Lekin diniy qarashlarning rivojlanish jarayoni hozir ham davom etmoqda.

“Inson qachondan beri Xudoga ishonib keladi”, “Din qachon paydo bo’ldi” kabi savollar doimo olimlarni o’ylantirib, qiziqtirib kelgan. Bunday qiziqishlar ularni yanada dinlar tarixini o’rganishga undagan. Mazkur izlanishlar necha asrlardan beri davom etib kelayotganiga qaramay, hanuzgacha bu borada bir to’xtamga qilinmagan. Hozirgi paytda fanda dinlarning shakllanishi tarixiga oid ikki xil qarash mavjud.

Birinchi qarashga ko’ra dinning paydo bo’lishi bevosita insoniyatning yaralishi bilan bog’liq. Xudo ilk insonlarini yaratishi bilan ularga O’zini tanitdi, natijada inson ilk dinga e’tiqod qila boshladi. Bunday qarash fanda “teologik yondashuv” deb nomlanadi. Ma’lumki, hozirda barcha dinlar o’z tarixini insonning yaratilishi, ilk inson bilan bog’laydi. Jumladan, islom dinida – Odam Ato va Momo Havo, yahudiylik va xristianlikda – Adam va Yeva, zardushtiylikda – Govmard, sintoizmda – imperator Mikado va boshqalar.

Dinlarning kelib chiqishi haqidagi ikkinchi qarash fanda “materialistik yondashuv” deb ataladi. Unga ko’ra din bu ijtimoiy hodisa, inson tafakkuri emotsiyalari mahsulidir. Mazkur qarash tarafdorlari fikricha, dinlar soddadan murakkabga, umumiylikdan xususiylikka, ko’pxudolikdan yakkaxudolikka tomon uzoq tarixiy evolyutsion jarayonni bosib o’tgan. [5.B.16-17.]

Biz dinga tarixiy, madaniy va ijtimoiy hodisa sifatida qaraganimiz sababli, biz uni tarixiy, antropologik, psixologik va sotsiologik nuqtai nazardan o’rganamiz. Dinlarni o’rganish uzoq tarixga ega. Bu boradagi ilk ma’lumotlarni Qadimgi Gretsiya va Rim yozuvchilari asarlarida ko’rishimiz mumkin. Ularning eng mashhuri “tarix otasi” nomini olgan Gerodot (mil. avv. 5-asr) o’zi tadqiq qilgan xalqlarning dinlari haqida ma’lumotlar keltirgan. [4.B.38]

Dinlarni o’rganish bo’yicha Sharq va G’arb olimlari qadimgi davrlardan to hozirga qadar har tomonlama chuqur o’rganib kelishmoqda. Jumladan, G’arbda zamonaviy ma’nodagi dinlar tadqiqotlari Maks Myukker (1823-1900) tomonidan boshlab berilgan. Olim 1856-yilda “Qiyosiy mifologiya” va 1870-yil nashrdan chiqqan “Dinlarning asosi va shakllanishiga oid dars baholari” nomli asarlari bilan boshqa dinlarni tadqiq qilishga yo’l ochgan va katta e’tibor qozongan. [2.B.24]

Bundan tashqari, Buyuk Britaniyalik antropolog va etnograf olim E.V. Teylor o’zining ilmiy tadqiqotlari natijasida ilk dinlarning kelib chiqishi haqida ko’plab g’oyalar bergan. [4.B.75]

Yevropalik olimlar ham islom dinini tadqiq qilishga ham ko’p e’tibor qaratganlar. Inglizlarning ham musulmon dunyosiga qiziqishi natijasida 1632-yilda

Angliyaning Kembrij universitetida, 1636-yilda esa Oksfordda turli kafedralar ochildi. Ushbu universitetlarda shu davrdan boshlab islomiy bilimlar o'rganib kelinmoqda.

Mashhur Sharq olimi Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o'zining "Al-osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"), "Hindiston" asarlarida dunyoda mavjud dinlar haqida o'z davri manbalari asosida so'z yuritadi. Ayniqsa, Beruniy dinlarni o'rganishda dinshunoslikning tadqiq qilish talablariga mos bo'lgan xolislik va tarixiy-tavsifiy usulda o'zining "Hindiston": asarini yozgan. Beruniy o'zining "Hindiston" asari to'g'risida shunday yozadi: "Bu kitob bahs-munozara kitobi emas, tarix kitobidir. Hindlarning dinlarini ularning o'zlaridan o'rganib, fikrlarini tanqid qilmay bayon qilaman". [1.B.12]

Musulmon o'lkalarida dinlar tarixini o'rganish sohasida ko'plab asarlar yaratilgan bo'lib, keyinchalik ular "Dinshunoslik" fanining taraqqiyoti uchun ulkan fundamental manba bo'lib xizmat qilgan. Xususan, yuqorida aytilganidek, Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Muhammad ibn Abdukarim Shahrisoniyning (1087-1154) "Al-milal van-nihal" ("Dinlar va oqimlar"), Ibn Hazm Andalusiyning [3.B.115] (994-1064) "Al-fasl fil-milal val-ahvo van-nihal" ("Dinlar, oqim va mazhablarni ajratish") kabi asarlari mashhur. [5. B.14]

Shuningdek, misrlik Muhammad Xalifa Hasan dinshunoslik bo'yicha deyarli barcha sohalarda qalam tebratgan va dinshunoslik rivojiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan. Faqatgina o'z dinini o'rganish bilan cheklanmay, boshqa dinlarni ham mukammal darajada bilgan. O'zining "Tarix al-adyan" asarini yozish uchun necha yillar davomida harakat qilgan. Haqiqatdan ham aytish mumkinki, "Tarix al-adyan" asari uning shoh asari hisoblanadi.

Olim o'z asarida islomda dinlar tarixiga oid ma'lumotlarni o'rganishning keng yoyilishiga quyidagi sabablarni keltiradi:

a) Islomdagi fikr erkinligi. Islom dini kelishi bilan keng yoyila boshlagan fikr erkinligi turli dinlar bilan bog'liq ma'lumotlarning tarqalishi va ommalashishi o'ziga xos o'rin tutgan. Misol tariqasida, xalifa Ma'mun o'z davrida turli din va mazhab vakillari bilan ilmiy bahs-munozaralar o'tkazib turardi.

b) Islom dini turli din vakillari orasida, ayniqsa, ahli kitoblarga ko'proq muruvvatli hisoblanadi. Xalifa Horun ar-Roshid hukmdorligi davrida Ahmad ibn Abdulloh ibn Salom ibn Xalifa tomonidan Tavrot va Injil kitoblari tarjima qilindi.

"Tarix al-adyan" asarida avvalo, yakkaxudolik dinlari haqida so'z ketadi. Uni yahudiylik, xristianlik va islom tashkil qiladi. Bu dinlarda butun olamni yaratgan yagona Iloh borligiga e'tiqod qilinadi. Uni tabiatdagi suratlar bilan sifatlab bo'lmaydi.

Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan Movarounnahrda islomgacha bo'lgan davrda ham turli dinlarning rivojlanishi va ularning jamiyat ma'naviyat hayotida muhim o'rin tutgan. Qadimgi Turon zamini miloddan avvalgi 2000-yillardayoq diniy e'tiqodlari mustahkamligi o'zining davlatchiligiga ega bo'lganligi sababli yuksak ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotga erishgan. O'z e'tiqodi, urf-odatlarini saqlab qolish va rivojlantirishga alohida e'tibor berganlar. Bilamizki, barcha dinlar o'z e'tiqod qiluvchilarini shu ta'limot doirasida tutib turadi. Bu esa dinning birlashtiruvchilik funksiyasi bilan insonlarda o'zaro ijtimoiy hodisani yuzaga keltiradi.

Markaziy Osiyo ko'pdan ko'p e'tiqodlar, diniy falsafiy ta'limotlar vatanidir. Qadimgi tarixdan ma'lumki, Movarounnahrda turli diniy e'tiqodlar bo'lishiga qaramasdan, diniy bag'rikenglikka rioya qilib yashaganlar.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyo nafaqat Sharqning, balki butun dunyo xalqlarining ham madaniy va diniy e'tiqod markazlaridan biri hisoblanadi. Tarixchi olim N.N.Kondratning: "Markaziy Osiyo dunyo madaniyatining o'choqlaridan biri bo'lgan", degan fikrlarida jon bor. Darhaqiqat, insoniyat tarixi, madaniyati, falsafasi va ma'naviy hayoti taraqqiyotida Markaziy Osiyo madaniyati, diniy e'tiqodlari ta'siri beqiyosdir.

Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviy takomillashuviga chuqur ta'sir etgan dinlardan zardushtiylik, moniylik, mazdakiylik, buddaviylik kabi dinlarni aytish mumkin. Shunday ekan, Markaziy Osiyoda har doim diniy bag'rikenglik an'analarga asoslanib faoliyat olib borilgan.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshqa din vakillarining e'tiqodi va tarixini o'rganish ular bilan iliq aloqalar qilishning va mamlakatda millatlararo totuvlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri sanaladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, o'zga millatlar urf-odatlari va dinini o'rganish, avvala mana shu hududdagi tinchlik va ahillikni ta'minlovchi me'zonlardan biri hisoblanadi. Dinlar tarixini o'rganish orqali bashariyat tarixini o'rganish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- [1]. Abu Rayxon Beruniy «Hindiston»,-T.: Fan, 1965 y., - 538 b.
- [2]. Dinshunoslik G.T.Tulemotova, O'.M.Hasanbayev. T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2021-y, 327 b.
- [3]. Islom ensiklopediyasi, T.:«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2004 y. - 357 b.

[4]. D.A.Raximdjanoʻv, O.K.Ernazarov “Dinshunoslikka kirish”: Oʻquv qoʻllanma. Toshkent: «Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti - 2018 .

[5]. Dunyo dinlari tarixi : Oʻquv qoʻllanma. -T.: Toshkent islom universiteti, 2011 y., - 261 b.